

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI



DINSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari to‘plami*



XVII

TOSHKENT – 2025

МЕЖДУНАРОДНАЯ ИСЛАМСКАЯ АКАДЕМИЯ УЗБЕКИСТАНА



АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ

*Сборник материалов республиканской
научно-практической конференции*



XVII

ТАШКЕНТ – 2025

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN



ACTUAL PROBLEMS OF RELIGIOUS STUDIES

*Proceedings of materials of the Republican scientific
and practical conference*



XVII

TASHKENT – 2025

Alimova, M., Ernazarov, O.

Dinshunoslikning dolzarb muammolari [Matn]: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami / M.Alimova, O.Ernazarov. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, 2025. – 392 b.

Mas'ul muharrir:

M.Alimova – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

**M.Alimova, N.Nizemetdinov, R.Urazova, R.Isakdjanov, O.Ernazarov,
M.Abdullayeva, G.Xudoyberganova**

Tuzuvchilar:

**M.Alimova – tarix fanlari nomzodi, dotsent
O.Ernazarov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**

Taqrizchilar:

**M.Muhammadsiddiqov – siyosiy fanlar doktori, professor
Sh.Ziyodov – tarix fanlari doktori**

Ushbu to'plam O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida har yili an'anaviy tarzda o'tkaziladigan "Dinshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallarini o'zida mujassam etgan. To'plamda respublikamizdagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida dinshunoslik fanlari bo'yicha dars beruvchi professoro'qituvchilar, dinshunoslik sohasi taniqli olimlari, islomshunos, sharqshunos, manbashunos, tarixchilar, shuningdek, yosh ilmiy tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari asosida yozilgan maqolalar jamlangan. Mazkur to'plam materiallarida diniy bag'rikenglik, milliy va diniy qadriyatlar uyg'unligi, ajdodlar ilmiy-ma'naviy merosining hayotimizda tutgan o'rni o'z ifodasini topgan. To'plam dinshunoslik sohasida izlanish olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilar, professoro'qituvchi va pedagoglarning ilmiy-amaliy faoliyatlarini samarali tashkil etishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

To'plamga kiritilgan materiallarda keltirilgan raqam, fakt va ma'lumotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Ilmiy va o'quv-uslubiy kengashining 2025-yil 24-apreldagi 8-son majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 17-iyundagi 03-07/3530-son xulosasiga asosan tayyorlandi.

SO‘Z BOSHI

Ko‘p yillardan beri O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida “Dinshunoslikning dolzarb muammolari” mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini tashkil qilish an‘anaga aylanib ulgurdi.

Hozirgi kunda jamiyatimizda milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligiga erishish, diniy bag‘rikenglik hamda millatlararo totuvlikni ta‘minlash, din niqobi ostidagi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ular qalbida obodlik, bunyodkorlik kabi ulug‘vor tuyg‘ularni uyg‘otish davr talabiga aylanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning, “O‘zbekiston – dunyoviy davlat. Bundan buyon ham millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, har bir fuqaroning vijdon erkinligi ta‘minlanadi. Barcha diniy konfessiyalar erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beramiz. Jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga hech qachon yo‘l qo‘ymaymiz”, deya bildirgan fikrlari diniy-ma‘rifiy sohadagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi.

Barchamizga ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25- fevralda O‘RQ-1037-son Qonuni bilan “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlash va davlatning diniy sohadagi siyosati konsepsiyasi” tasdiqlandi. Konsepsiyaning maqsadlaridan biri sifatida konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag‘rikenglikni va dunyoviylikni ta‘minlash belgilangan bo‘lib, bunda dinlarning ilmiy-madaniy merosini o‘rganish, dinshunoslik bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalariga alohida ta‘kidlab o‘tilgan.

Davlatning diniy sohadagi siyosatini amalga oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni sifatli bajarish va natijalar samaradorligini oshirish maqsadida bu yil O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida “Yangi O‘zbekistonda dinshunoslik ta‘limi va ilmiy tadqiqotlar” respublika forumini tashkil qilishga qaror qilindi. Forum doirasida “Dinshunoslikning dolzarb muammolari” respublika an‘anaviy konferensiyasini o‘tkazish bilan bir qatorda sohaga oid xalqaro tajribani o‘rganishga qaratilgan binar darslar, davra suhbatlari va talabalar ilmiy anjumani yuqori saviyada o‘tkazildi.

Konferensiyada muhokama qilingan masalalar, xususan, dunyoviy va diniy ta'limga oid muammolar borasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalari bilan ilmiy jamoatchilikni tanishtirish, respublikamiz ta'lim muassasalarida dinshunoslikka oid fanlarni o'qitishni yanada takomillashtirish, diniy bag'rikenglik g'oyalarini umumbashariy qadriyat sifatida mustahkamlash bilan bog'liq bo'lib, ular respublikamiz milliy taraqqiyoti, tinchlik va barqarorligining kafolati bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Anjuman materiallari to'plamiga kiritilgan ma'lumotlar kelajagimiz bo'lgan yoshlarning mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning yangi bosqichida amalga oshirilayotgan qat'iy islohotlarning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglab yetishida ularga ruhiy va ma'rifiy kuch-quvvat berishi, shubhasiz.

Muzaffar Kamilov,

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi rektori, tarix fanlari nomzodi, dotsent*

Bir soʻz bildan aytganda, ehson insonga aloqador boʻlgan barcha sohalarni: shaxsiy, ijtimoiy va xalqaro sohalarni oʻz ichiga oladi. Ehson nafaqat inson, balki hayvonot, nabotot va butun borliq bilan bogʻliq boʻlgan sohalarga ham aloqador sanaladi. Shuning uchun Alloh taolo har bir ish va amalni ehson bilan bajarishga buyurgan. Ushbu maqola hadislarda bayon qilingan sohalari, maʼnolari va maqsadlari keng yoritilib, shu orqali insonlarga ehson haqida toʻliq va toʻgʻri tushuncha berishga harakat qilindi.

* * *

Bexzodjon Roʻzaliyev,
Oʻzbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Mumtoz sharq filologiyasi
fakulteti dekan oʻrinbosari

GʻARB DUNYOSIDA DINGA BERILGAN TAʼRIFLAR

Din murakkab va serqirra hodisa boʻlgani uchun uni taʼriflashda yondashuvlardagi xilma-xillik kuzatiladi. Bugungi kungacha dinni toʻliq ifodalovchi taʼrif xususida yakdil fikrga kelinmagan. Bunda tadqiqotchilarning dunyoqarashi muhim ahamiyat kasb etgan. Natijada, turli-tuman taʼriflar paydo boʻlgan.

Avvalo, Gʻarb dunyosida dinga berilgan taʼriflar bilan tanishib chiqildi. Rim respublikasi davrining davlat va siyosiy arbobi, notiq, faylasuf va olim Sitseron oʻzining “Qonunlar haqida” kitobida, din – bu insonni Xudo bilan birlashtiruvchi rishtadir¹⁶³, deb taʼrif bergan.

Nemis faylasufi, maʼrifatparvarlik davrining markaziy mutafakkirlaridan biri Kant oʻzining “Din aql hududida” kitobida, din subyektiv jihatdan bizning barcha burchlarimizni ilohiy buyruq sifatida bilishdir¹⁶⁴, deb taʼriflagan.

“Abbe Chatel” nomi bilan tanilgan, shizmatik¹⁶⁵ fransuz ruhoniysi, fransuz katolik cherkovining asoschisi Shatel oʻzining “Insoniylik qonuni”

¹⁶³ Ciceron M.T. De Legibus. – Cambridge: J.Hall and Son; – London: Simpkin, Marshall and Co.; Hamilton, Adams and Co., 1881. –P. 34-35.

¹⁶⁴ Kant E. La Religion Dans Les Limites De La Raison. – Paris: Librairie De Ladrage, 1841. –P. 271.

¹⁶⁵ Cherkovning ajralishi tafardori.

kitobida, tushunish kerak bo'lgan va Xudo uni hammaga namoyon qilgan din – bu mavjudotning Yaratuvchi oldidagi, insonning Xudo oldidagi, insonning jamiyat oldidagi va insonning o'zi oldidagi burchlarining yig'indisidir¹⁶⁶, deb ta'riflagan.

Nemis faylasufi, ilohiyotchisi va voizi, liberal protestant teologiyasining asoschisi Shleyermaxer o'zining “Diyonat haqida maqolalar” kitobida, din bir vaqtning o'zida siz uchun fikrlash, e'tiqod, dunyoni tafakkur qilishning o'ziga xos usuli va bu dunyoda biz bilan uchrashadigan narsalarni birlashtirishdir, o'ziga xos xulq-atvor va xarakter¹⁶⁷, deb ta'riflagan.

Fransuz protestant pastori va ilohiyotchisi; din tarixiga oid ko'plab asarlar muallifi Revil o'zining “Dinlar tarixi muqaddimasi” kitobida, din – bu dunyo va o'zi ustidan hukmronligini tan oladigan va u bilan birlashish tuyg'usi yoqimli bo'lgan (taskin beradigan) sirli ruh bilan inson ruhini birlashtiruvchi bog'lanish hissi orqali inson hayotini belgilash¹⁶⁸, deb ta'kidlagan.

Amerikalik yozuvchi Karr o'zining “Asosiy prinsiplar” kitobining xotimasida, biz ko'rdikki, vaqt va makon chegaralarini tasavvur qilib bo'lmaydigan kuchga ishonish dinning asosiy elementi bo'lib, u duch kelishi mumkin bo'lgan barcha shakl o'zgarishlaridan omon qoladigan elementdir¹⁶⁹, deb ta'riflagan.

Ingliz etnolog, madaniyatshunos olimi, diniy marosimlar tadqiqotchisi Taylor o'zining “Ibtidoiy madaniyat” kitobida, dinning minimal ta'rifi sifatida, ruhiy mavjudotlarga ishonishni da'vo qilish¹⁷⁰, deb ta'kidlagan.

Nemis va ingliz filologi, din olimi, umumiy tilshunoslik, hindshunoslik va mifologiya bo'yicha mutaxassis Myuller o'zining “Dinning paydo bo'lishi va rivojlanishi” kitobida, batafsil aytadigan bo'lsam, din – bu ong qobiliyati bo'lib, his-tuyg'ular va aqlga qaramasdan, odamga turli xil nomlar

¹⁶⁶L'Abbe Chatel. Le Code De L'Humanite. – Paris: Chez L'Auteur, 1838. –P. 98.

¹⁶⁷Schleiermacher F.D.E. Über die Religion: Reden an die Gebildeten unter ihren Verächtern. – Leipzig: F.A.Brodhaus, 1868. –P. 26-27.

¹⁶⁸Reville A. Prolegomenes De L'Histoire Des Religions. – Paris: Librairie Fischbacher, 1886. –P. 34.

¹⁶⁹Herbert Spencer. Les Premiers Principes. – Paris: Felix Alcan Editeur, 1907. –P. 493.

¹⁷⁰Edward B. Taylor. La Civilisation Primitive. – Paris: C.Reinwald Et Cie Libraires-Editeurs, 1876. –P. 491.

va o'zgaruvchan niqoblar ostida cheksizni mustaqil ravishda tushunishga imkon beradi. Bu qobiliyatsiz hech qanday din, hatto butlarga va fetishlarga eng oddiy sig'inish ham mumkin bo'lmaydi. Agar siz quloq solsangiz, har qanday dinda ruhning nolasini, "tushunib bo'lmaydigan narsani tushunishga intilish" shovqinini eshitishingiz mumkin. Ifodalab bo'lmaydigan, cheksiz intilish, Xudoga bo'lgan muhabbatni ifodalash mumkin¹⁷¹, deb ta'kidlagan.

Qadimgi fors mixxatlarini ochishga katta hissa qo'shgan mashhur fransuz sharqshunosi, XIX asr o'rtalarida buddizmning eng yirik tadqiqotchisi Byurnuf o'zining "Diyonatlar ilmi" kitobida, din – ibodatdir va ibodat ham aqliy ish bo'lib, u orqali inson oliy kuchni tan oladi va u o'z eziguligiga murojaat qiladi¹⁷², deb ta'riflagan.

Fransuz ruhoniylar faylasufi va shoiri Gyuyo o'zining "Kelajak dinsizligi" kitobida, xulosa qilib aytganda, biz yana bir bor asosiy fikrimizni tasdiqlaganini ko'ramiz: din hamma narsaning jismoniy, metafizik va axloqiy izohi sifatida o'ylab topilgan sotsiologiyadir; bu barcha tabiiy va hatto g'ayritabiiy kuchlarning inson tipiga va ularning ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatlariga qisqarishidir¹⁷³, deb ta'kidlagan.

Fransuz ravvini Mayer o'zining "Axloqiy va diniy ta'limotlar" kitobida, din – bu Xudoga, qo'shnimizga yoki o'zimizga bo'lgan xatti-harakatlarimizda bizni boshqaradigan e'tiqod va ko'rsatmalar to'plami. Din nomi ba'zan Xudo bizga bo'lgan sevgimiz uchun bergan qonunga, ba'zan esa Xudoga bo'lgan muhabbatimiz tufayli bu qonunga bo'ysunishimizga taalluqlidir. Bundan kelib chiqadiki, din bizni Xudoga va o'xshashlarimizga bog'laydigan va o'z qadr-qimmatimizga g'amxo'rlik qiladigan sevgi, hurmat va adolat tuyg'usidir¹⁷⁴, deb ta'riflagan..

Fransuz arxeologi, filologi, san'atshunosi, dinshunos olim Reynax o'zining "Dinlarning umumiy tarixi" kitobida, din – bu bizning

¹⁷¹Max Muller F. Origine Et Developpement De La Religion. – Paris: C.Reinwald Et Cie Libraires-Editeurs, 1879. –P. 20-21.

¹⁷²Emile Burnouf. La Science Des Religions. – Paris: Maisonneuve Et Cie Libraires-Editeurs, 1772. –P. 204..

¹⁷³Guyau M. L'Irreligion De L'Avenir Etude Sociologique. – Paris: Felix Algan Edituer Ancienne Librairie Germer Bailliere Et Cie, 1906. –P. 84.

¹⁷⁴Michel Mayer. Tsidkath Elohim Ou Instructions Morales Et Religieuses. – Paris: A.Durlacher Libraire, Blum Libraire,1885. –P. 1-2.

harakatlarimizning mutlaq erkinligi uchun to‘siq bo‘lib turgan qaytaruvlar to‘plami¹⁷⁵, deb ta’kidlagan.

Fransuz sotsiologi va faylasufi, fransuz sotsiologik maktabining asoschisi va strukturaviy-funksional tahlilning salafi. Dyurkgeym o‘zining “Diniy hayotning boshlang‘ich shakllari” kitobida, din – bu alohida taqiqlangan, muqaddas narsalar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zaro bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi e’tiqod va amaliyotlar tizimidir. Bu e’tiqod va amaliyotlar o‘z ergashuvchi muxlislarini serkov deb nomlangan ma’naviy birlikka birlashtiradi¹⁷⁶, deb ta’kidlagan.

Din – inson imkoniyatlaridan beqiyos darajada ustun bo‘lgan oliy qudratga ishonch va unga sig‘inib ibodat qilishga, shak-shubhasiz ravishda muqaddas kitoblar, narsalar, naql-rivoyatlar mo‘tabarligini tan olishga, har bir individ o‘zining unga absolyut holda bog‘liqligini va uning lutf-karami, yordamiga sazovor bo‘lish umidida ekanligini e’tirof etishga asoslangan bilish formasi¹⁷⁷, ekanligi ta’kidlanadi.

Din ikki ma’noda ishlatiladi: Birinchisi – yahudiylik, xristianlik va hinduiylik haqida so‘z yuritilganda, yahudiy, xristian va hinduiyning ishonchini belgilovchi avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan og‘zaki an’analar yoki diniy kitoblar to‘plamini tashkil qiluvchi ta’limotlar majmuasi nazarda tutiladi; Ikkinchisi – odamni hayvondan ajratuvchi narsa din bo‘ladi deyilganda, qandaydir aniq dinni nazarda tutmay, balki, aql qobiliyati yoki rag‘batini his-tuyg‘u va idrokdan mustaqil ravishda, ba’zan ularga xilof o‘laroq insonga cheksizlikni har xil nomlar va turli-tuman formalarda anglash imkoniyatini berish¹⁷⁸, tushuniladi.

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, har bir mutaxassis o‘zining ixtisosligidan va dunyoqarashidan kelib chiqib “din” tushunchasini bayon qilib tushuntirib berishga harakat qilgan. G‘arb dunyosidagi sohaga oid adabiyotlarda keltirilgan mulohazalar yuqoridagi olimlarning fikrlarini

¹⁷⁵Salomon Reinach. *Orpheus: Histoire Generale Des Religions*. – Paris: Publications Alcide Picard, 1921. –P. 4.

¹⁷⁶Emile Durkheim. *Les Formes Elementaires De La Vie Religieuse*. – Paris: Quadrige / PUF, 1990. –P. 65.

¹⁷⁷Дидье Жюлиа. *Философский словарь: Пер. с франц.* – Москва: Междунар. отношения, 2000. –С. 378-381.

¹⁷⁸Классики мирового религиоведения. Антология. Т. 1 / Пер. с англ., нем., фр. Сост. и общ. ред. А.Н.Красникова. – Москва: Канон+, 1996. –С. 41-42.

batafsil izohlash yoki ularni bir nechasinini jamlash orqali “din” tushunchasini ta’riflashga jiddu-jahd ko’rsatishganligini ko’rishimiz mumkin. Dinning ayrim aspektlari haqida so’z yuritib, ateistik jihatdan berilgan ta’riflar bilan bir qatorda, bu tedensiyani biroz yumshatib bag’rikenglik nuqtai nazaridan yondoshganlarni, shuningdek, o’ta tor va dogmatik ruhiyatga ega bo’lganlari ham mavjud. Dunyoda insonni yaratib, unga qanday yashash kerakligini o’rgatadigan ta’limot sifatida tushuntirganlar ham bor.

Demak, G’arb dunyosida din – bu Xudo borligiga ishonch-e’tiqod masalasi bo’lib, bunda, inson Xudo bilan doimiy rishta bog’lashga buyuriladi. Shuningdek, inson barcha burch va majburiyatlarini ilohiy buyruq sifatida tan olishi hamda bajarishi ta’kidlanadi. Inson bajarishga buyurilgan burchlar: 1. Insonning Xudo oldidagi burch va majburiyatlari; 2. Insonning jamiyat oldidagi burch va majburiyatlari; 3. Insonning o’zi oldidagi burch va majburiyatlari. Shuning uchun, ular ishonch-e’tiqodlaridan adashmaslik, ibodatlari, marosimlarini bajarish uchun turli cherkovlar va jamoalarga birlashadilar.

* * *

Ahad Raymberdiyev,

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

«Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini

o‘rganish ICESCO” kafedrasi o‘qituvchisi

“SUNAN” ASARIDAGI TAFSIR BOBI VA UNING ISLOM ILMLARIDAGI AHAMIYATI

Qur’oni karim ma’nolarini to’g’ri tushunish va tafsir qilishda hadislarning o’rni beqiyosdir. Hadis ilmi rivojida muhim o’rin tutgan muhaddislar orasida Imom Termiziy alohida mavqega ega bo’lib, uning “Sunan Termiziy” nomli asari tafsir ilmi rivojiga ham sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy hadis ilmi bo’yicha keng tadqiqotlar olib borgan va ko’plab muhaddislar bilan ilmiy muloqotlar qilgan. Uning “Sunan” asari oltita mashhur hadis to’plamlaridan biri sifatida tan olinib, unda hadislarning isnod, matn va sharhlari alohida uslubda bayon etilgan.